“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Yoshlarning fikr va so‘z erkinligi huquqi: xalqaro standartlar va milliy huquqiy kafolatlar

Navro‘zbek Aslonov,
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi mas’ul xodimi
Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Phd)
e-mail: aslonovnavruzbek@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada yoshlarning fikr va so‘z erkinligi huquqining xalqaro-huquqiy asoslari hamda O‘zbekiston Respublikasida ushbu huquqni ta’minlashning konstitutsiyaviy va qonunchilik kafolatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fikr va so‘z erkinligining inson huquqlari tizimidagi o‘rni, yoshlarning mazkur huquqdan foydalanishining o‘ziga xos jihatlari, xalqaro standartlarda belgilangan huquqiy mezonlar yoritiladi. Shuningdek, BMTning universal hujjatlari va milliy qonunchilik normalari qiyosiy-huquqiy jihatdan o‘rganilib, yoshlarning fikr va so‘z erkinligini samarali ta’minlash hamda himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Калит сўзлар. Yoshlar, inson huquqlari, fikr erkinligi, so‘z erkinligi, fikrni erkin ifoda etish, yoshlar huquqlari, konstitutsiyaviy huquqlar, xalqaro huquq, milliy qonunchilik.

Аннотация. В данной статье анализируются международно-правовые основы права молодежи на свободу мысли и слова, а также конституционные и законодательные гарантии обеспечения этого права в Республике Узбекистан. В исследовании освещается роль свободы мысли и слова в системе прав человека, особенности использования молодыми людьми этого права, правовые критерии, установленные международными стандартами. Также будут изучены универсальные документы ООН и нормы национального законодательства в сравнительно-правовом аспекте, выдвинуты научно-практические предложения по совершенствованию механизмов эффективного обеспечения и защиты свободы мысли и слова молодежи.

Ключевые слова. Молодежь, права человека, свобода мысли, свобода слова, свободное выражение мнения, права молодежи, конституционные права, международное право, национальное законодательство

Annotation. This article analyzes the international legal foundations of the right of youth to freedom of thought and expression, as well as the

constitutional and legislative guarantees for ensuring this right in the Republic of Uzbekistan. The study highlights the role of freedom of thought and expression in the human rights system, the specifics of youth exercising this right, and the legal criteria established by international standards. Furthermore, a comparative legal study of universal UN documents and national legislative norms will be conducted, and scientific and practical proposals will be put forward to improve mechanisms for effectively ensuring and protecting the freedom of thought and expression of youth.

Keywords. Youth, human rights, freedom of thought, freedom of speech, free expression of opinion, youth rights, constitutional rights, international law, national legislation.

Kirish. Bugungi kunda yoshlarning jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtiroki demokratik taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda o‘z nuqtayi nazarini erkin shakllantirishi, uni ifoda etishi va jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etishi inson huquqlari va demokratik boshqaruvning fundamental tamoyillari bilan bevosita bog‘liq. Shu ma’noda, fikr va so‘z erkinligi yoshlarning shaxs sifatida erkin rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning jamiyat hayotidagi faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim huquqiy shartidir.

Yoshlarning fikr va so‘z erkinligini ta’minlash zamonaviy demokratik jamiyatni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, jamiyat taraqqiyotiga oid masalalar yuzasidan mustaqil qarashlarini shakllantirishi va ularni erkin ifodalashi davlat boshqaruvida ochiqlik, hisobdorlik hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning fikr va so‘z erkinligi huquqini faqat shaxsiy erkinlik doirasida emas, balki ularning jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlovchi fundamental huquq sifatida baholash lozim.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasi har bir insonning fikr va so‘z erkinligi huquqini e’tirof etib, axborot va g‘oyalarni izlash, olish hamda ularni har qanday vositalar orqali tarqatish erkinligini kafolatlaydi[1]. Mazkur qoida yoshlar uchun ham umumiy inson huquqi sifatida tatbiq etiladi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 19-moddasi esa ushbu erkinlikning xalqaro shartnomaviy-huquqiy asosini belgilaydi[2].

O‘zbekistonda ham fikr, so‘z va e’tiqod erkinligi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 33-moddasida har kimning fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, shuningdek, axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi mustahkamlangan. 79-moddada esa yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini himoya qilish hamda ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirish davlatning vazifasi sifatida belgilangan[3].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, yoshlarning fikr va so‘z erkinligini huquqiy jihatdan tan olishning o‘zi ushbu huquqning amalda to‘laqonli ta’minlanishini anglatmaydi. Mazkur huquqni samarali amalga oshirish uchun yoshlarning mustaqil fikrlashiga, axborotdan foydalanishiga, jamoatchilik muhokamalarida qatnashishiga va o‘z qarashlarini qonuniy vositalar orqali ifodalashiga imkon beruvchi huquqiy hamda institutsional shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi zarur.

Asosiy qism. Xalqaro huquqda “yoshlar” tushunchasining barcha davlatlar uchun yagona, universal va yuridik jihatdan majburiy yosh chegarasi shakllanmagan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti rasmiy materiallarida yoshlar yosh guruhining xalqaro miqyosda umumqabul qilingan yagona ta’rifi mavjud emasligi qayd etiladi. Shu bilan birga, BMT statistik maqsadlarda, a’zo davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan boshqa ta’riflarga daxl qilmagan holda, 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni “yoshlar” sifatida belgilaydi. Mazkur yosh chegarasi 1985-yilgi Xalqaro yoshlar yilini tayyorlash jarayonida shakllangan hamda BMT Bosh assambleyasining 1981-yil 19-noyabrdagi 36/28-rezolyutsiyasi bilan ma’qullangan[4]. BMTning yoshlar bo‘yicha statistik ma’lumotlari ham aynan ushbu mezonga asoslanadi.

Shu bilan birga, xalqaro huquqning ayrim hujjatlarida yoshlar tushunchasining yosh chegarasi BMTning statistik yondashuvidan farq qiladi. Xususan, BMT Xavfsizlik kengashining 2250 (2015)-son “Yoshlar, tinchlik va xavfsizlik” rezolyutsiyasi doirasida yoshlar 18 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan shaxslar sifatida tushuniladi[5]. BMTning Tinchlik o‘rnatish bo‘yicha rasmiy materiallarida ham 2250 (2015)-son rezolyutsiyasida yoshlar uchun aynan 18–29 yosh oralig‘i nazarda tutilgani, statistik maqsadlarda esa BMT 15–24 yosh chegarasidan foydalanishi alohida qayd etilgan.

Mintaqaviy xalqaro huquqiy hujjatlar doirasida esa yoshlar tushunchasi yanada kengroq yosh chegarasida belgilanishi mumkin. Jumladan, Afrika Yoshlar Xartiyasi 2006-yil 2-iyulda Afrika ittifoqi tomonidan qabul qilingan va 2009-yil 8-avgustda kuchga kirgan xalqaro shartnoma bo‘lib, unda yoshlar 15 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan shaxslar sifatida belgilanadi[6]. Afrika ittifoqi ushbu Xartiyani yoshlarning huquqlari, majburiyatlari va rivojlanishiga bag‘ishlangan yuridik jihatdan majburiy mintaqaviy hujjat sifatida tavsiflaydi.

Shunday qilib, xalqaro-huquqiy amaliyot tahlili “yoshlar” tushunchasining yosh chegarasi yagona emasligini ko‘rsatadi. BMTning statistik yondashuvida 15–24 yosh, tinchlik va xavfsizlik sohasidagi xalqaro huquqiy-siyosiy yondashuvda 18–29 yosh, Afrika mintaqaviy huquqida esa 15–35 yosh chegarasi qo‘llanadi. Bu holat “yoshlar” tushunchasi xalqaro huquqda kontekstga bog‘liq ravishda shakllanishini hamda uning universal yuridik ta’rifini ishlab chiqish masalasi hanuz dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, xalqaro-huquqiy amaliyot tahlili “yoshlar” tushunchasining yosh chegarasi yagona emasligini ko‘rsatadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

O‘zbekistonning “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida “yoshlar – o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar” ekanligi belgilangan[7]. Mazkur ta’rifdan kelib chiqib, O‘zbekiston qonunchiligida “yoshlar” tushunchasi xalqaro amaliyotdagi ayrim yondashuvlardan farqli ravishda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni qamrab oluvchi aniq milliy-huquqiy kategoriya sifatida belgilanadi va shu orqali yoshlarning fikr hamda so‘z erkinligini amalga oshirish, jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etish hamda davlat va jamiyat hayotidagi faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarning subyektlari doirasi aniqlashtiriladi.

Fikr erkinligi insonning o‘z qarashlari, e’tiqodlari va dunyoqarashini mustaqil shakllantirish, saqlash va o‘zgartirish imkoniyatini ifodalaydi. Mazkur erkinlik shaxsning ichki intellektual va ma’naviy sohasiga taalluqli bo‘lib, davlat yoki boshqa shaxslarning majburlovidan himoyalanishni nazarda tutadi. So‘z erkinligi esa insonning o‘z fikr va qarashlarini boshqa shaxslarga yetkazish, jamoatchilik muhokamasida ishtirokni anglatadi.

BMT Inson huquqlari qo‘mitasining Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakti 19-moddasiga berilgan umumiy 34-sharhida fikr erkinligi va so‘z erkinligini shaxsning har tomonlama rivojlanishi hamda erkin va demokratik jamiyat faoliyat yuritishining zarur sharti sifatida baholaydi[8]. Qo‘mita fikr erkinligi mutlaq xususiyatga ega ekanini, so‘z erkinligi esa xalqaro huquqda nazarda tutilgan muayyan shartlar asosida cheklanishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Yoshlar nuqtayi nazaridan ushbu farq alohida ahamiyatga ega. Chunki yoshning muayyan siyosiy, ijtimoiy yoki madaniy masala bo‘yicha fikrga ega bo‘lishi uning ushbu fikrni albatta ommaviy ravishda ifodalashini anglatmaydi. Shu bilan birga, yoshlar o‘z qarashlarini ifodalashga qaror qilgan taqdirda, u qonunda belgilangan asoslar mavjud bo‘lmaguncha, mazkur huquqdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Fikr va so‘z erkinligining mazmuni siyosiy qarashlar bilan cheklanmaydi. U ilmiy munozara, ta’lim, san’at, madaniyat, diniy qarashlar, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, jurnalistika va raqamli kommunikatsiya kabi sohalarni ham qamrab oladi. Shunday ekan, yoshlarning mazkur huquqi ularning shaxsiy rivojlanishi, kasbiy shakllanishi va fuqarolik faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Avstraliyalik huquqshunos Emily Hoviening fikricha, fikr va so‘z erkinligini faqat shaxsning o‘z fikrini ifodalash imkoniyati sifatida emas, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishi va demokratik jamiyat faoliyat yuritishi uchun zarur shart sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, fikr va so‘z erkinligi boshqa huquqlardan foydalanish, xususan, siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun ham muhim ahamiyatga ega[9]. Fikr va so‘z erkinligining mohiyatini anglashda xalqaro huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Xususan, Emily Hovie fikr va

so‘z erkinligini insonning shaxsiy rivojlanishi hamda demokratik jamiyatning normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan fundamental huquq sifatida baholaydi. Olimaning fikricha, mazkur erkinlik faqat shaxsga o‘z qarashlarini ifodalash imkonini beribgina qolmay, boshqa huquqlardan foydalanish uchun ham zarur shartlardan biridir. Mazkur yondashuv yoshlarning huquqiy maqomi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Chunki yoshlarning fikrini erkin shakllantirish va ifodalash imkoniyati ularning intellektual, ijtimoiy va fuqarolik jihatdan rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli yoshlarning so‘z erkinligini faqat “fikr bildirish imkoniyati” bilan cheklab qo‘yish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu huquq yosh shaxsning o‘zligini namoyon etishi, bilim va qarashlarini rivojlantirishi hamda jamiyatdagi turli jarayonlarga nisbatan mustaqil munosabatini shakllantirishi uchun huquqiy imkoniyat yaratadi. Bizningcha, aynan shu jihat yoshlarning fikr va so‘z erkinligini umumiy inson huquqlari tizimida alohida tadqiq etishni taqozo etadi. Zero, yoshlar tomonidan bildirilgan fikrning mazmuni emas, avvalo, uning qonuniy shaklda ifodalanishi va shaxsning bunday fikrga ega bo‘lish huquqi huquqiy himoya obyektini tashkil etadi.

BMT Inson huquqlari qo‘mitasining 2011-yil 12-sentabrdagi CCPR/C/GC/34-son Umumiy sharhi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 19-moddasini sharhlovchi eng muhim xalqaro huquqiy manbalardan biridir. Mazkur hujjatda fikr va so‘z erkinligining mazmuni, davlatlarning majburiyatlari, cheklovlarning qonuniyligi hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanish masalalari izohlangan. Umumiy izohning 11-bandida so‘z erkinligi siyosiy nutq, davlat va jamoat ishlari yuzasidan fikr bildirish, inson huquqlari masalalarini muhokama qilish, jurnalistika, ta’lim, madaniy va badiiy ifoda kabi shakllarni qamrab olishi qayd etiladi. 12-bandda esa himoya qilinadigan ifoda shakllari va ularni tarqatish vositalari, jumladan, elektron hamda internetga asoslangan kommunikatsiya vositalari ham nazarda tutilishi ko‘rsatilgan.

Mazkur yondashuv yoshlarning fikr va so‘z erkinligi uchun ham bevosita ahamiyatga ega. Chunki bugungi yoshlar ijtimoiy-siyosiy fikrlarini nafaqat an’anaviy ommaviy axborot vositalari, balki internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, podkastlar va boshqa raqamli platformalar orqali ham ifodalaydi. Shuning uchun so‘z erkinligining xalqaro-huquqiy kafolatlari raqamli muhitdagi ifoda shakllarini ham qamrab olishi zarur.

Umumiy izohda ifoda etilgan muhim qoidalardan biri shundaki, davlatlar faqat o‘zlariga ma’qul yoki ijobiy deb hisoblangan fikrlarni emas, balki tanqidiy, bahsli yoki davlat siyosatiga nisbatan e’tiroz bildiruvchi qarashlarni ham huquqiy himoya qilishi kerak. Demokratik jamiyatda davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati yuzasidan tanqidiy fikr bildirish jamoatchilik nazoratining muhim vositalaridan biridir.

Xalqaro ekspert Maykl Flaxerti Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 19-moddasini sharhlashga bag‘ishlangan tadqiqotida fikr va so‘z erkinligining xalqaro huquqiy mazmuniga alohida e’tibor qaratadi. Olimning yondashuvida so‘z erkinligini xalqaro huquqda faqat individual huquq sifatida emas, balki demokratik jamiyat uchun zarur bo‘lgan kommunikativ huquqdir[10].

Ushbu yondashuv yoshlarning fikr va so‘z erkinligini tadqiq etishda ham muhimdir. Chunki yosh shaxsning o‘z fikrini shakllantirishi va uni ifodalashi axborotdan foydalanish imkoniyati bilan chambarchas bog‘liq. Binobarin, yoshlarning so‘z erkinligini ta’minlash masalasini axborotga kirish imkoniyatidan ajratib o‘rganish ushbu huquqning mazmunini toraytirib qo‘yishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning fikr va so‘z erkinligi uch o‘zaro bog‘liq element – fikrni erkin shakllantirish, axborot va g‘oyalarni izlash hamda ularni ifodalash va tarqatish imkoniyatlarining birligi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Yoshlarning jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan xalqaro hujjatlar ham mazkur huquqning amaliy ahamiyatini ochib beradi.

BMT Xavfsizlik kengashining 2015-yil 9-dekabrdagi 2250-rezolyutsiyasi yoshlarning tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashdagi rolini e’tirof etadi[11]. Mazkur hujjat yoshlarning qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi, ularning ovozini eshitish va yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi. Yoshlarning fikrini erkin shakllantirishi va uni qonuniy vositalar orqali ifodalashi ularning mazkur jarayonlarda mazmunli ishtirok etishining muhim shartidir.

BMT Bosh assambleyasining 2021-yil 16-dekabrdagi 76/137-rezolyutsiyasi ham yoshlar, tinchlik va xavfsizlik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib[12], yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash xalqaro kun tartibining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Bunday hujjatlar yoshlarning fikr va so‘z erkinligini alohida yangi huquq sifatida yaratmaydi, balki mavjud universal huquqlarning yoshlar siyosatidagi ahamiyatini kuchaytiradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, yoshlar huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning barchasi ham fikr va so‘z erkinligini bevosita, alohida modda orqali tartibga solmaydi. Shu sababli ilmiy tahlilda mazkur hujjatlarni so‘z erkinligining bevosita huquqiy manbalari bilan aralashtirmaslik, ularning yoshlar ishtiroki va huquqiy imkoniyatlarini kengaytirishdagi rolini alohida ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi yoshlarning fikr va so‘z erkinligi huquqini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan bir qator fundamental qoidalarni belgilaydi. Konstitutsiyaning 19-moddasida inson huquq va erkinliklari tug‘ilganidan boshlab tegishli ekani, ularning davlat tomonidan e’tirof etilishi va kafolatlanishi mustahkamlangan[13]. Ushbu norma yoshlarning ham umumiy inson huquqlaridan teng

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

foydalanishini ta’minlovchi asosiy konstitutsiyaviy kafolat hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 33-moddasida har kimning fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi kafolatlangan[14]. Shuningdek, har kim axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekani belgilangan. Davlat internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyatini yaratishi ham konstitutsiyaviy vazifa sifatida qayd etilgan. Mazkur qoidalar yoshlarning zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali o‘z qarashlarini shakllantirishi va ifodalashi uchun muhim huquqiy asos yaratadi.

Ayni moddada axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini cheklashga faqat qonun asosida hamda konstitutsiyaviy tuzumni, aholi salomatligini, jamoat axloqini, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini, jamoat xavfsizligi va tartibini himoya qilish, shuningdek, davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlarni oshkor etishning oldini olish uchun zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yilishi belgilangan.

Mazkur norma yoshlarning so‘z erkinligini cheklash masalasida ham muhim mezon vazifasini bajaradi. Chunki yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlari, ommaviy chiqishlari, ilmiy munozaralari yoki jamoatchilikka qaratilgan murojaatlari huquqiy jihatdan baholanganida cheklovning qonuniyligi va zarurligi asosiy mezon bo‘lishi kerak.

Konstitutsiyaning 79-moddasi yoshlarning huquqiy maqomini yanada aniqlashtiradi. Unga ko‘ra, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini himoya qiladi hamda ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi[15]. Ushbu norma yoshlarning fikr va so‘z erkinligini faqat shaxsiy huquq sifatida emas, balki ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishini ta’minlovchi vosita sifatida ham ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Fikr va so‘z erkinligi yoshlarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 36-moddasida fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita yoki vakillari orqali ishtirok etish huquqi mustahkamlangan[16]. Ushbu huquq o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar, davlat organlarini demokratik shakllantirish hamda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yoshlarning fikr va so‘z erkinligi mazkur siyosiy huquqning mazmuniy asoslaridan biridir. Chunki fuqarolarning davlat ishlarida mazmunli ishtiroki, avvalo, ularning axborotga ega bo‘lishi, muammolar yuzasidan mustaqil fikr shakllantirishi va ushbu fikrni jamoatchilikka yetkazishi bilan bog‘liq. Yoshlarning siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishi faqat saylov yoki boshqa rasmiy tadbirlarda qatnashish bilangina cheklanmasligi lozim.

Shu jihatdan, yoshlar uchun jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etish, davlat organlariga murojaat qilish, ilmiy va ijtimoiy munozaralarda qatnashish, qonun loyihalari yuzasidan takliflar

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

bildirish hamda ommaviy axborot vositalari orqali o‘z qarashlarini ifodalash imkoniyatlarini kengaytirish huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarning fikr va so‘z erkinligi huquqini xalqaro va milliy huquqiy jihatdan tahlil qilish ushbu huquqning kafolatlari bilan bir qatorda, uning mazmunini to‘g‘ri anglash va amalda ta’minlash bilan bog‘liq ayrim masalalarni ham ko‘rsatadi. Mazkur masalalar, avvalo, fikr va so‘z erkinligining chegaralari, yoshlarning ushbu huquqdan foydalanishiga zarur huquqiy shart-sharoitlarni yaratish hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Birinchi muhim masala – “fikr erkinligi” va “so‘z erkinligi” tushunchalarining huquqiy mazmunini aniq farqlash zaruratidir. Fikr erkinligi shaxsning qarashlariga ega bo‘lishi va ularni mustaqil shakllantirishini anglatadi. So‘z erkinligi esa ushbu fikrlarni og‘zaki, yozma, bosma, badiiy yoki boshqa shakllarda ifodalash imkoniyatini qamrab oladi. Shu sababli mazkur huquqlarni yagona tushuncha sifatida talqin qilish ularning alohida huquqiy xususiyatlarini e’tibordan chetda qoldirishga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi masala – so‘z erkinligining qonuniy cheklanishlari bilan bog‘liq. Xalqaro huquqda mazkur huquq mutlaq huquq hisoblanmaydi. Biroq uni cheklash faqat qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganida va belgilangan qonuniy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan darajada amalga oshirilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning so‘z erkinligini amalga oshirish jarayonida huquq va majburiyatlarning o‘zaro muvozanatini ta’minlash muhimdir.

Uchinchi masala – yoshlarning axborot va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liq. Bugungi kunda yoshlarning fikrlarini ifodalash shakllari an’anaviy og‘zaki yoki yozma vositalar bilan cheklanmaydi. Internet nashrlari, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va boshqa raqamli kommunikatsiya vositalari fikr va g‘oyalarni ifodalashning muhim vositalariga aylangan. Shu sababli so‘z erkinligining huquqiy kafolatlarini zamonaviy raqamli kommunikatsiya shakllarini hisobga olgan holda rivojlantirish zarur.

To‘rtinchi masala – yoshlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati bilan bog‘liq. Fikr va so‘z erkinligidan samarali foydalanish uchun yoshlar nafaqat o‘z huquqlarini, balki ushbu huquqni amalga oshirish bilan bog‘liq qonuniy talablarni ham bilishi lozim. Xususan, axborotning ishonchliligini baholash, boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilmaslik kabi masalalar so‘z erkinligining mas’uliyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega.

Beshinchi masala – xalqaro standartlarni milliy huquqni qo‘llash amaliyotida izchil hisobga olish zaruratidir. Fikr va so‘z erkinligiga oid xalqaro standartlar, xususan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 19-moddasi hamda BMT Inson

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

huquqlari qo‘mitasining 34-son Umumiy sharhida belgilangan mezonlar milliy huquqni sharhlash va qo‘llashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, yoshlarning fikr va so‘z erkinligini ta’minlashni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida huquqiy aniqlikni kuchaytirish, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, raqamli muhitdagi so‘z erkinligi kafolatlarini rivojlantirish, xalqaro standartlarni milliy amaliyotda izchil qo‘llash hamda huquq va qonuniy manfaatlarning o‘zaro muvozanatini ta’minlashni ko‘rsatish mumkin.

Xulosa. Yoshlarning fikr va so‘z erkinligi huquqi inson huquqlari tizimining ajralmas qismi bo‘lib, yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil dunyoqarashini shakllantirishi va o‘z qarashlarini erkin ifodalashi uchun zarur huquqiy asosni tashkil etadi. Mazkur huquqning ahamiyati yoshlarning alohida ijtimoiy-demografik guruh sifatidagi xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning umumiy inson huquqlarining to‘laqonli subyekti ekanligi bilan ham belgilanadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, shuningdek, axborotni izlash, olish va tarqatish huquqining kafolatlanganligi yoshlarning mazkur huquqini ta’minlash uchun mustahkam konstitutsiyaviy asos yaratadi. Shu bilan birga Konstitutsiyada yoshlarning huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyat hamda davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishga oid qoidalari yoshlarning huquqiy maqomini yanada mustahkamlaydi. Tahlil natijasida yoshlarning fikr va so‘z erkinligini samarali ta’minlash faqat tegishli huquqiy normalarning mavjudligi bilan cheklanmasligi, balki ularning huquqiy savodxonligini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli muhitdagi huquqiy kafolatlarni rivojlantirish bilan ham uzviy bog‘liqligi aniqlandi.

Shuningdek, yoshlarning so‘z erkinligini amalga oshirishda huquq va mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash alohida ahamiyatga ega. So‘z erkinligi boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, qonunda belgilangan talablarga rioya etish va xalqaro huquqda e’tirof etilgan qonuniy cheklovlar doirasida amalga oshirilishi lozim. Shu asosda, yoshlarning fikr va so‘z erkinligi huquqini yanada samarali ta’minlash uchun ushbu huquqning nazariy va huquqiy mazmunini aniqlashtirish, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, raqamli kommunikatsiya sharoitida so‘z erkinligining kafolatlarini takomillashtirish hamda xalqaro inson huquqlari standartlarini milliy huquqni qo‘llash amaliyotida izchil hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Umuman yoshlarning fikr va so‘z erkinligini ta’minlash ularning shaxs sifatida erkin rivojlanishi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishi va zamonaviy jamiyatda o‘z qarashlarini qonuniy hamda mas’uliyatli tarzda ifodalashi uchun zarur bo‘lgan huquqiy

shartlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси // Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалари тўплами. -Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2023. -179 б.

2. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт // Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалари тўплами. -Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2023. -179 б.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son; 14.07.2026-y., 03/26/1158/0727-son.

4. United Nations General Assembly. International Youth Year: Participation, Development, Peace. Resolution 36/28, 19 November 1981. A/RES/36/28.

5. United Nations Security Council. Maintenance of international peace and security. Resolution 2250 (2015), 9 December 2015. S/RES/2250 (2015).

6. African Union. African Youth Charter. Adopted 2 July 2006; entered into force 8 August 2009. URL: //https://au.int/en/treaties/african-youth-charter?utm.

7. O‘zbekiston Respublikasining 14.09.2016-yildagi “Yoshlar oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 406-qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/25/1109/1241-son; 23.06.2026-y., 03/26/1155/0616-son.

8. Human Rights Committee. General Comment No. 34: Article 19: Freedoms of Opinion and Expression. CCPR/C/GC/34. Geneva: United Nations, 12 September 2011, para. 2. URL: //https://docstore.ohchr.org/SelfServices/FilesHandler.ashx?enc.

9. Howie E. Protecting the human right to freedom of expression in international law //International journal of speech-language pathology. – 2018. – Т. 20. – №. 1. – С. 12-15.

10. Cox N. Justifying blasphemy laws: Freedom of expression, public morals, and international human rights law //Journal of Law and Religion. – 2020. – Т. 35. – №. 1. – С. 33-60.

11. United Nations Security Council. Resolution 2250 (2015), adopted by the Security Council at its 7573rd meeting, on 9 December 2015. S/RES/2250 (2015). — New York: United Nations, 2015. — Paras. 1–2, 5.

12. United Nations General Assembly. Policies and programmes involving youth: Resolution adopted by the General Assembly on 16 December 2021. A/RES/76/137. — New York: United Nations, 2022. — Paras. 1–2, 8.

13.14.15.16. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son; 14.07.2026-y., 03/26/1158/0727-son.